

XOTIN-QIZLAR O'RTASIDA JINOYATCHILIKNING OLDINI-OLISH SOHASIDAGI QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH VA UNING AHAMIYATI

*Toxirjonov Muhammadali Zokirjon o'g'li
Nabihev Mirodil Jahongir o'g'li
Soburbayev Kamronbek Bahrombek o'g'li*

Annotatsiya: Ushbu maqolada xotin-qizlar o'rtasida jinoyatchilik va huquqbazarlikning kelib chiqishi va ortib boorish sabablari shuningdek jinoyatchilikni oldini-olishdagi kamchilik va muammolar hamda ularning yechimlari yuzasidan ilg'or xorijiy tajribalar yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: xotin-qizlar jinoyatchiligi, tazyiq va zo'ravonlik, himoya orderi, ikki yoki undan ortiq xotin bilan er-xotin bo'lib yashashni targ'ib qilish, oilaviy(maishiy) zo'ravonlik, jins bo'yicha kamsitishni targ'ib qilish.

Key words: Bugungi kunda xotin-qizlarning oila va jamiyatda o'z o'rnini topishi, mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etishi ko'p jihatdan yurtimizda mavjud sharoitlar hamda ularga korsatilayotgan ko'makka bog'liq. Bunda nafaqat ayollarning tashabbuslari qo'llab-quvvatlash va haq-huquqlarini har tomonlama himoya qilish, balki ular orada jinoyatchilikning oldini olish masalasi ham dolzarb hisoblanadi.

Shu jihatdan xotin-qizlrning g'ayriijtimoiy xulqiga sabab bo'luvchi omillarni o'rgansih va bartaraf etish masalasida qonunchilikka o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish shu jumladan ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilik va jinoyat qonunchiligiga javobgarlikni belgilovchi bir qator yangi normalar kiritilganligi ushbu sohadagi amalga oshirilayotgan so'nggi islohotlarning qanchalik dolzarb ekanligiga yaqqol misoldir. Birgina 2023-yilning o'zida xotin-qizlar tomonidan sodir etiladigan va xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan huquqbazarlik va jinoyatlarni oldini olish maqsadida bir qator qonun va qonunosti hujjatlar qabul qilindi. Jumladan 2023-yil 11-apreldagi O'zbekiston Respublikasining 829-sonli qonuni bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga yangi 41¹-modda „Shahvoniy shilqimlik qilish, ya'ni shaxsga nisbatan uning uchun nomaqbul bo'lgan hamda uning sha'ni va qadr-qimmatini tahqirlaydigan, shaxsning tashqi qiyofasini yoki qaddi-qomatini tavsiflashda, imoshora qilishda, tegishli chaqirishda ifodalandan, shahvoniy xususiyatga ega bo'lgan harakatlarni bir marta qo'pol ravishda yoki bir necha marta sodir etish- bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari(680 ming so'm)dan – 5 baravari(1 mln 700 ming so'm)gacha miqdorda jarima solishga yoki 5 sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi. Xuddi shunday huquqbazarliklar ma'muriy jazo chorasi

qo'llanilgandan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa - bazaviy hisoblash miqdorining 5 baravari(1 mln 700 ming so'm)dan – 7 baravari(2 mln 380 ming so'm)gacha miqdorda jarima solishga yoki 15 sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi“ va 59²-modda „Oilaviy(maishiy) zo'ravonlik, ya'ni xotiniga (eriga), sobiq xotiniga(sobiq eriga), bir ro'zg'or asosida bиргаликда yashayotgan shaxsga yoki umumiy farzandga ega bo'lган shaxsga nisbatan sodir etilgan mulk, ta'lim olish, sog'liqni saqlash va (yoki) mehnatga oid huquqni amalga oshirishga to'sqinlik qilish, mol-mulkiga va shaxsiy ashyolariga qasddan shikast yetkazish, xuddi shuningdek ushbu shaxslar sog'ligining yomonlashuviga olib kelgan tarzda ularning sha'ni va qadr-qimmatini tahqirlash, ularni qo'rqtish, yaqin qarindoshlardan ajratib qo'yish, basharti jinoyat alomatlari, shuningdek ushbu Kodeksda nazarda tutilgan boshqa huquqbazarliklar alomatlari mavjud bo'lmasa - bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravari(3 mln 400 ming so'm)dan - 20 baravari(6 mln 800 ming so'm)gacha miqdorida jarima solishga yoki 10 sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi. Xotinini(erini), sobiq xotinini(sobiq erini), bir ro'zg'or asosida bиргаликда yashayotgan shaxsni yoki umumiy farzandga ega bo'lган shaxsni do'pposlash, ushbu shaxslarga sog'liqning qisqa muddatga yomonlashuviga yoki mehnat qobiliyatining uncha uzoq bo'lмаган muddatga yo'qolishiga olib kelmaganqasddan badanga yengil shikast yetkazish - bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravari(3 mln 400 ming so'm)dan - 20 baravari(6 mln 800 ming so'm)gacha miqdorida jarima solishga yoki 15 sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi“ kabi javobgarliklar belgilandi, shuningdek , 2023-yil 31-oktabrdagi O'zbekiston Respublikasining 874-sonli qonuni bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga yangi 47⁸-modda „Ikki yoki undan ortiq xotin bilan er-xotin bo'lib yashashni targ'ib qilish, ushbu mazmundagi qarashlarni, g'oyalarni yoki chaqiriqlarni tarqatish shuningdek bunday xatti-harakatlarni rag'batlantirish – bazaviy hisoblash miqdorining 15 baravari(5 mln 100 ming so'm)dan - 30 baravari(10 mln 200 ming so'm)gacha miqdorida jarima solishga yoki 15 sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi“ va 189²-modda „Jins bo'yicha kamsitishni targ'ib qilish, shu jumladan xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlilagini ochiqdan-ochiq inkor etish, ushbu mazmundagi qarashlarni, g'oyalarni yoki chaqiriqlarni tarqatish xuddi shuningdek bunday xatti-harakatlarni omma oldida oqlash va (yoki) rag'batlantirish - bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravari(3 mln 400 ming so'm)dan - 20 baravari(6 mln 800 ming so'm)gacha miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi“ kabi moddalarning qonunchilikka kiritilishi ushbu sohadagi muhim islohotlardan biri hisoblanadi.

Xotin-qizlar o'rtasida sodir etilayotgan huquqbazarliklarning sabab va sharoitlarini asosan ijtimoiy hayotning bunday tasniflash zarur profilaktik chora-

tadbirlar ishlab chiqish va ularni qayerlarda amalga oshirish kerakligini aniqlashga yordam beradi.

Huquqbuzarlik sodir etivchi ayollar profilaktikasini amalga oshirishda shaxsning psixologik xususiyatlarini chuqur o'rganish maqsadga muvofiqdir. Shaxsning psixologik xususiyatlarini o'rganish asosan shaxsdagi jinoiy xulqni keltirib chiqaradigan xususiyat va sifatlarni aniqlash, ularni baholash va shunga ko'ra ushbu toifadagi shaxslar tomonidan qayta huquqbuzarlik sodir etilishining oldini olish bo'yicha profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amaliyatga tadbiq etishni nazarda tutadi.

Xotin-qizlar tomonidan sodir etiladigan va ularga nisbatan sodir etiladigan jinoyatlarni oldini olishda xorij tajribasini o'rganish va uning samrali jihatlarini milliy qonunchilikk implementatsiya qilish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xorij tajribasida jinoyat sodir etgan ayolni huquqlarini himoya qilishga qaratilgan huquqbuzarliklarni oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar huquqni muhoofaza qilish organlari tomonidan ishlab chiqilgan. Ayol turmushining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini o'rganish, huquqbuzarlik sodir etishga ko'maklashuvchi shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish maqsadida Buyuk Britaniya, Lotin Amerikasi davlatlari, AQSH, Italiya va Germaniyada ayollar jinoyatlari bo'yicha maxsus bo'lmlar va tashkilotlar tuzilgan. Buyuk Britaniya va AQSH da quyidagi ko'rinishda maxsus profilaktik chora-tadbirlar kvartal-inspektorlari tomonidan okrug prokurorining ruxsati bilan qo'llaniladi, masalan „Neighborhood watch“(Qo'shnining kuzatuvi), „Crime stoppers“(Jinoyatni to'xtatuvchilar), „WEED and SEED“ va hokazolar.

Xulosa o'rnida aytganda milliy mentalitetimiz, urf-odat va an'anlarimizga ko'ra ayolning jamiyatda xususan oilada, farzand tarbiyasida tutgan o'rni beqiyos bo'lganligi sababli ushbu sohadagi qonunchilikni takomillashtirishda oilalardagi ma'naviy muhit, ayollarning emotsiyonal ruhiy holatlarini va eng muhimi „oila – bu muqaddas dargoh“ ekanligini inobatga olishimiz zarur.

Adabiyotlar.

1. Rustambayev M. Jinoyathuquqi. (Umumiyyqism). -T.: TDYI. 2005. -B.84.
2. Sattorova M. Voyaga Yetmaganlarjinoyatchiliginoldiniolish. -T.: TDYI. 2006. -B.7.
3. Elov Z.S. O'Smirlik Davrida Shaxs Xulq–Atvorida Kuzatiladigan Reaksiyalarning Psixologik Ta'siri.“PSIXOLOGIYA” ILMIY JURNAL1, 2022. 27-294.BerdiyevaD.Sh.Elov Z.S. Psychological Reasons For Suicide Motivation In Adolescents With Deviant Behavior. ORIENTALRENAISSANCE: INNOVATIVE, educational, natural and social sciences scientific journal. Volume 2, Issue 2 February 2022. 1003-1009